



Yulduzli chiroqchalar

Chaqaloq dunyoga kelganida, ota-onalar mittigina mo'jizasiga o'zlarining koinotlaridan bir parcha hadya etadi. Keyinchalik ushbu koinot kengayishi yoki torayishi esa ota-onalarning tarbiyasiga, ularning tarbiyalari uchun qo'shgan modda-yu, antimoddasiga bog'liq bo'ladi.

Yoshligimdan yulduzlarni yaxshi ko'rardim. Ayniqsa buvimning uyi osmonida ko'rinib turadiganlarini sevardim. Xuddiki kimdir osmonda olmoslarni sochib yuborganday. Naqadar yorug', toza, yuvosh. Aslida esa doimo kengayib boradigan koinotning yetarlicha xatarli qimschalari.

Besh yoshga to'lganimda, onamga bag'ishlangan shaxsiy koinotim bo'lishini xohlab qolgandim. Otam meni o'yinchoqlar do'koniga olib borib so'radilar:

- Xo'sh qizalog'im, tug'ilgan kuningga nima istaysan?
- Yulduzli chiroqchalarni.

Shunday qilib deyarli butun shahardan izlab, nihoyat chiroqchalarni topgandik. Men hattoki keyingi do'konga borgunga qadar mashinada uxlab ham qolgandim.

Mendan bahtiyor bola yo'q edi. Menda yigirma dona yulduzli chiroqchalar bor edi. Bolalar baxtli bo'lishi uchun ko'p narsa kerak emas aslida. Menga bor yo'g'i chiroqchalar kerak edi. Onam ularni karavotim ustiga ilib berdilar va ular qorong'uda charaqlab turardi. Mening ham endi o'z koinotim bor. Ajoyib, charaqlab turadigan, yangi va o'zimga o'xshagan mittigina koinot.

Qora tuynuklar, meteorit-u kosmik changlarsiz, ajoyib koinot. Xayolimda turli sayyoralarni yaratardim. Sayyoralardan birining nomi "Oyijonim" edi. Besh yoshli qizaloq uchun juda mos nom. Bu sayyorada hamma bir-birini yaxshi ko'rardi, onalar qizlarining sochlariga tasmachalar boylab qo'yishadi, otalar ularni quchoqlashadi. Shunchaki hamma baxtli.

Hammasi oddiy. Shunchaki, besh yoshli qizaloq muhabbat yonida nafrat ham yashashi mumkinini mutlaqo bilmas edi. Inchunin muhabbat naqadar ajoyib tuyg'uki, insonni hattoki so'qir qilib qo'yadi. Ammo, u o'tkinchi. Sevgi – o'tkinchi. Afsuski, uni saqlab qolish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Sevgi tugaganda esa, nafrat keladi.

Besh yulduz

Men sakkiz yoshda edim. Aqlli, maktabni, boshqa bolalar bilan o'ynashni, yangi soch tasmachalarini maqtanishni sevadigan xushchaqchaq qizcha. Yulduzlari hanuz charaqlab turgan, "Oyijonim" sayyorasi gullab yashnayotgan, onalar jilmaygan, otalar sevadigan, bolalar baxtli bo'lgan koinotga ega qizaloq. Kutilmaganda u uyg'onib ketadi va besh dona yulduz o'chib qolganini ko'radi. Nima bo'ldi ekan? Nega ular yonmayapti? Umidsizlikdan onasini chaqirishni boshlaydi. Javoban esa onasining otasidan uni urmasligini so'rab yolvorayotganini eshitadi. Onasi yig'lardi, ovozlari titrardi. "O'tinaman. Kechir. Keyingi safar yaxshiroq pishiraman". Bu so'zlarni qizaloq hech qachon unutmagandi. Sakkiz yosh vaqtidayoq u onasini shunchalik yaxshi ko'rardiki, hattoki onasiga yordam berish uchun xonasidan otilib chiqqan edi. Sakkiz yoshli "men" hozirgidan ancha jasoratliroq edi. U paytlar men hech narsadan qo'rqmas edim, chunki ko'p narsalar haqida o'ylamasdim ham. Yoshing ulg'ayib, yanada aqling rasolashib borgani sari esa, hamma narsa haqida bosh qotira boshlaysan. Qarabsanki, yoshlikdagi jasurlik kamayib boradi.

Masalan, "agar aralashsam, uni jahli battar chiqadi va onamni yanada qattiqroq urib qo'yishi mumkin" yoki "agar u bilan gaplashsam, u men yo'qligimdan foydalanib, onamga nimadir qilishi mumkin, onam esa yurganimda yana muammo paydo bo'lmasligi uchun buni mendan yashiradi" kabi xayollar haqida o'ylay boshlaysan. Sakkiz yoshli men – qora tuynuklar haqida bilmas edi. U shunchaki koinot ajoyib, olmoslardek charaqlab turadigan yulduzlardan iborat deb bilardi. O'shanda xonasidan chiqqanida, hayotida ko'p narsalar haqida bilib olgandi. G'azab, befoyda o'tinch, qo'rquv nimaligini va eng daxshati, u suyuqli onasining ko'zlaridagi yoshni ko'rgandi. Va u buni hech qachon unutmagandi. Harakat qildi. Ammo ongining tubida hanuzgacha o'sha ko'z yoshlarini xuddi mittigina yurakchasiga botgan xanjar singari eslab qolgandi.

Ma'lumki, koinot kengayadi, ammo qizaloqning koinoti kichrayib borardi. Unda "ishonchsizlik" va "nafrat" nomli qora tuynuk va meteoritlar paydo bo'lgandi.

Ikki yulduz

Hayot doim ham shirin bo'lavermaydi. Ammo doim achchiq ham emas. "Bizda hammasi yaxshi bo'ladi" deb uqtirardi onam narsalarimni tartibga solar ekanman, "Sen faqat bu haqda o'ylama. Sen o'qishing haqida o'ylashing kerak! Tushundingmi?!" Men esa albatta "Ha" deb javob bergandim.

Keyinchalik tushunib yetdimki, hech qachon jasoratli bo‘lmagan ekanman. Onam jasoratli edi. Va hech qachon onamdek aqlli ham bo‘lmaganman. Men shunchaki doim o‘z fikrini aytishdan qo‘rqadigan qiz edim, xolos. Nima “to‘g‘ri” va nima “noto‘g‘ri” ligini unutgan edim. Men shunchaki eshitardim. Koinotim yana torayganida, men o‘n olti yoshda edim.

– Men u bilan yashay olmayman, – deb boshladi suhbatni amakivachcham. –Men shunchaki yashay olmayman. –“Unda nega unga turmushga chiqding?” deb o‘ylardim men. Hech qachon xayolimdagini aytmasdim. Nimagadir o‘zgalar tinchligi muhim edi. Bu uchun esa o‘zimning tinchligimni qurbon qilardim. Butun vaqtimni boshqa odamlar uchun shunchaki sirlar uchun aqchadon vazifasida o‘tkazib yuborganimni bilganimda esa, o‘zim uchun deyarli yashamagan ekanligimni tushunib yetgandim. Butun hayotim davomida o‘zgalar nima deyishi muhimligi haqida o‘ylardim. Jim tinglasam, men ham tinchlik va osoyishtalikka erishaman, deb o‘ylardim. Aslida esa yigirma yulduzli koinotim haqida o‘ylashim kerak edi. Biroq...

– Bu noto‘g‘ri! – dedi amakivachcham, noroziligini ko‘rsatib. – Bu noto‘g‘ri! U meni doim aldaydi! U menga xiyonat qilgan.

Nima aslida “to‘g‘ri”? Odamlar hammaga birdek “to‘g‘ri” bo‘lishi uchun nima qilishi kerak? Axir bunaqasi bo‘lmaydiku. Sen uchun “to‘g‘ri” tuyulgandek ish ko‘rasan, ammo baribir sening ishlaringda “noto‘g‘rilik”ni ko‘radigan va seni ayblaydigan odamlar topiladi. Hammaga birdek yoqishning iloji yo‘q. Shunday qilib nima “to‘g‘ri” ekan? Va “yol‘gon” nimani anglatadi? Sen o‘zing undan homiladorligingni yashirganingda va yashirincha abort qildirganingda uni aldamaganmiding? Demak, seningcha buni kechirsa bo‘ladi, uning hiyonatini esa yo‘qmi? Menga nima “to‘g‘ri”ligini ko‘rsating. Sen qanday qilib o‘zingning so‘zlaringga bunchalik ishona olasan? Axir, sening ishlaring haqida men ko‘proq bilaman-ku.

Men amakimning qizini abort sabab ayblay olmayman. Chunki u buni kerak va muhim deb qabul qilgandi.

Onam otam bilan yashashda davom etishga qaror qilganda to‘g‘ri qilganmikan? Axir men ozmuncha qabihliklarni ko‘rishga majbur bo‘lmadimmi? Politsiyaga qo‘ng‘iroq qilib, ularga otamni yomon ko‘rishimni aytganimda, men to‘g‘ri qilganmidim? Axir u mening otam-ku. “Doim mehribon bo‘l. Xudo mehribonlarni yaxshi ko‘radi” derdi otam menga. Shu so‘zlarni qiziga aytgan inson, uni doim yig‘lashga va insonlardan yiroqlashishga majbur qilgandi.

“Yolg‘on” nomli kosmik chang paydo bo‘lishi, koinotimga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi va men yana ikki dona ajoyib yulduzimdan mahrum bo‘lgandim.

Uch yulduz

“ Balki hammasidan voz kechgan yaxshidir?” deb o‘ylardim tez-tez. Ayniqsa maktabni bitirishimga oz qolgan paytdan boshlab ko‘p o‘ylardim. Universitetga kiradigan va o‘z kelajagimni quradigan vaqt kelgan. Ammo bular menga kerakmi? Balki

shunchaki onamni o'zim bilan uzoq-uzoqlarga olib ketib, shunchaki yashash uchun ishlaganim ma'quldir? Shunda onamni azoblardan asray olgan bo'lardim. Balki keyinchalik shaxsiy hayotimni qurarmidim.

“Ota” kim? U beg'ubor va charaqlab turuvchi yulduzlarga ega mitti koinotlar yaratilishida muhim rol o'ynaydigan inson. Keyinchalik esa, shu koinotni turli chang, meteorit va yorug'likni yutib yuborib, qayta qo'yib yubormaydigan qora tuynuklar paydo bo'lishidan himoya qiluvchi inson. Agar mana shu barcha chang-u, meteorit va qora tuynuklar paydo bo'lishiga sabab aynan o'sha senga avvaliga beg'ubor koinotni sovg'a qilgan inson bo'lsachi? Onang esa sening o'chib qolgan va keyinchalik esa umuman qora tuynukka aylangan yulduzlaringni qayta yoqishga urinsa-yu, otang bunga yo'l qo'ymasa. Va sen bir vaqtlar cheksiz bo'lgan koinotingni kim nima qilayotganini, undagi yulduzlar o'chayotganini yaqqol ko'rib bilib tursang-u, hech narsa qilolmasang. Nima uchun? Chunki u sening otang, amakingni qizi, qo'shning, qo'shningni otasi, qo'shningni iti... Biroq, yolg'iz onanggina seni qo'llab-quvvatlayotganini, yulduzlaring o'chib qolmasligini istayotganini koinotingda mavjud bo'lgan barcha moddalar bilan his etasan va ko'rasan. Va aynan mana shu paytda sening baxting uchun ko'p inson kerak emasligini tushunib yetasan. Faqatgina onang kerak.

Onang esa betob va davolanishni hech ham istamayapti. Jahling chiqqan. O'zing bilmagan holda onangga baqirasan, uni dori ichishga undaysan. U esa qaysar. “Oyijon” deb nomlanadigan sayyora xuddi “Yer” kabi noyob. O'zining tabiat qonunlari, yashovchilari mavjud. Ammo “Oyijon” sayyorasi utopiya. Naqadar ajoyib sayyoraki, butun umr yashaging keladi. Biroq vaqt ham bor. U ayovsiz. Qachonki mana shunday suluv sayyorani vaqt yeb bitirayotganini, azoblar esa jarayonni yana tezlashtirayotganini ko'rganingda, va hech qanday yordam bera olmayotganingda, faqatgina bir dona chorang qoladi: og'zing va burningni yostiq bilan qattiq yumib yig'lash. Onang eshitmasligi kerak. Bo'lmasa yanada ko'proq azoblanadi.

Onam betob bo'lib qolganida, yana ikkita yulduzim o'chgandi.

Onam betob, ammo ishini qoldirmasdi. Bir dona kun ham qoldirmagan. Otam ham ishda. Onamga baqirib qo'yganim esa menga tinchlik bermasdi.

Bilasizmi nima onalarni baxtli qila oladi? Qachonki uning farzandi ilk qadamlarini qo'yganida, ilk so'zlarini aytganida, qachonki uning farzandi ilk bolalar qo'shiqlarini yod olganida, ilk so'zlarini o'qiy olganida, birinchi marta onasining rasmini chizganida, ilk a'lo bahosini maqtab kelganida, maktabni tugatayotganida, universitetga kirganida... ular baxtli bo'lishlari uchun naqadar kam narsa kerak-a. Baxt esa quvvat beradi, quvvat jonlantiradi va “Oyijon” sayyorasi yana uzoq vaqt yashnaydi. Tan olaman, pazandalikni onam uchun o'rganganman. Onamga tortlar juda yoqardi. Ammo, supermarketga borganim nimanidir himoya qilishimiz, aynan o'shani yo'qotishimiz xavfi bo'lishini yaqqol ko'rsatgandi. Adolat mavjudligiga ishonchimni saqlab qolishga urinib, kundan kunga adolat shunchaki ertak ekanligini ko'rardim. Ba'zi odamlarga nisbatan hurmatni saqlab qolishga urinib, ularga nisbatan bu hurmat umuman qayerdan paydo bo'lganiga hayron bo'lardim.

Umuman olganda “sevgi” o‘zi nima, agar “sevgan” inson o‘zining “butun umrlik muhabbatiga” uylanib, yana unga xiyonat qilsachi? Va buni ularning qizi o‘z ko‘zlari bilan ko‘rsa?

Yana bir yulduz o‘chdi...bor yo‘g‘i o‘n dona yulduz qoldi.

Birin ketin...

Buni sir saqlashga majbur edim. Yana razil sirlar uchun aqchadonga aylandim. Haqiqat og‘riqli bo‘ladi. Azob beradi. Ko‘ngilni sovutadi. Aynan shuning uchun ham haqiqat osonlikcha aytilmaydi. Ko‘pgina hollarda haqiqat jim turish yo‘li orqali yashiriladi. Shunda odamlarga osonroq bo‘ladi. Odamlarga haqiqatni qabul qilish oson emas. Vaqt o‘tib sevgi ham tugashini, xiyonatlarni bo‘lishini, aldanish mumkinligini qabul qilish oson emas. Biz kerak bo‘lmagan muammolar bilan o‘zimizni qamrab olamiz hamda “shunday bo‘lishi kerak” deb chidab yuraveramiz. Nima uchun “shunday bo‘lishi kerak?”

Biroq onamga shunday yaxshiroq bo‘lsa, mayli bo‘laqolsin. Ularga buni aytmayman. Onamning halovati men uchun hammasidan ustun. Hattoki yaqinlarning ham azob berishlari mumkinligini tushunib yetganingda yana bir yulduz so‘nadi va koinot yanada qisqaradi. Ammo yaqinlarning senga nisbatan jirkanchlik qilib turganida, begonalardan nimani kutish mumkin? Ishonchni ham yo‘qotasani. Yana bir yulduz so‘nadi. Koinot juda tez qisqarishda davom etadi.

Ishonchni yo‘qotganingda esa, undan olgan uzugingga uzoq tikilib turasan va “ishonchsiz qanday yashash mumkin?” degan savolni o‘zingga berasan hamda uzukni taqmay ham qo‘yasan, yana bir yulduz so‘nadi. Haqligingni bilganingda esa, yana bir yulduz so‘nadi. Chunki sen bu buyumda ortiq ma‘no ko‘rmayapsan. Uzukni yechishing bilan yana bir yulduz so‘ngan edi. Sening koinoting shunchalar kichrayganki, bemalol cho‘ntakka solib yursa bo‘ladi.

Iliqlik, kelajakka ishonch, hayotda nimagadir erishishga bo‘lgan harakatni va qarindoshlarning-u otangga bo‘lgan majburiy hurmatni hanuzgacha “Oyijon” sayyorasi bo‘lgan koinoting markazi ushlab turadi.

Naqadar betakror sayyora. Va shunchaki betakror emas, balki kuchli, dono va go‘zal ham. Bu sayyora uchun shunchaki jilmayish yetarli, bunga javoban esa senga ko‘prog‘ini beradi, vaholanki eng kamiga arzimasligingni bilsang-da.

Aynan shu sayyora sabab koinoting haligacha tirik.

Sabab esa aslida nimada? Razilliklar sababi nimada?

Nahotki yaxshi pishirilmagan taom g‘azablanish uchun sabab bo‘la olsa? Nahotki taom oilaviy hayotda shunchalik muhim ro‘l o‘ynaydiki, agar taomga nimadir bo‘lgan bo‘lsa, albatta qo‘l ko‘tarish kerak? Agar shunday bo‘lsa, uylanishdan avval “Men yeyishni sevaman. Menga boshqasi kerak emas” deb aytgan ma‘qul emasmi? Yo‘q. Taomning hech qanday aloqasi yo‘q. Shunchaki hammasi o‘tkinchi. Buni qabul qilish kerak va yashashda davom etish kerak.

Va nihoyat insonlarni asl mohiyatini tushunib yetganingda? Yana bir yulduz o'chadi. Endi esa bor yo'g'i besh dona yulduz qoladi.

Mitti qizaloqning koinotida ilk o'chgan besh yulduz esingizdami? Ular "Otam yulduzlari" edi. U ularga shunday nom bergan edi. Uning otasidan ko'ngli qolganida, otasi qanday inson bo'lishi mumkinligini ko'rganida, o'sha besh yulduz o'chgan edi. Uning otasi qizaloq tug'ilganida o'zi sovg'a qilgan yulduzlarini tortib olgandi. Endi esa unda koinoti markazi bo'lgan onasidan qolgan besh yulduz bor edi xolos.

Koinoti markazi esa hanuz "Hamma bir xil emas!", "U seni otang!", "Hammasi yaxshi bo'ladi" kabi so'zlarni takrorlab, so'ngan yulduzlarni qayta yoqishga urinar edi.

Men onamning so'zlariga ishondim. Onam gaplariga kirishga qaror qildim, chunki aynan onam juda tez kichrayib, qorong'ilashib borayotgan koinotimda yorug'likni ushlab turar edi.

Onamni baxtli qilishga qaror qildim. Onamga hammadan ko'ra onam arziydigan baxtni sovg'a qilishga qaror qildim. Ammo buni qanday qilishni bilmasdim.

– Oyi, aytingchi, baxtli bo'lishingiz uchun nima qilay? Men bilan faxrlanishingiz uchun nima qilay?

– Universitetga kir.

Va onam istagandek qildim. O'shanda uning ko'zlarida quvonch ko'zyoshlarini ko'rdim. Onam baxtli edi, men esa o'zimdand qoniqqandim. Biroq yonib turgan yulduzlar soni ortmasdi. Menda haligacha bech yulduz yonib turardi, chunki men menda muhabbat va hayotga qiziqishni ushlab turgan go'zal ayol, onam uchun yashab, u uchun harakat qilar edim.

– Mening qizalog'im ham qachonlardir kimnidir topsa, juda ajoyib bo'lar edi. – onam kunlardan bir kun tushlik stoli ustida gap boshlab qoldi, – Vaqti keldi menimcha. – deb qo'shib qo'ydi.

Onamning bu istagini ham bajo keltirishga qaror qildim.

Xuddi hammasi ko'ngildagidek. Koinotda yana tartib o'rnatilgan. Yangi, ammo avvalgi tartibsizlikka asoslangan tartib. Tartibsizlik endilikda qo'yib yuborilgan, ozod etilgan va e'tibordan yiroqlashtirilgan. Ammo kelajakda yana shunday xatoliklarga yo'l qo'yilmasligi uchun butunlay xotiradan o'chirilmagan edi. Haligacha ota "xiyonat" ko'chasida, odamlar aldaydi, tashlab ketadi, hokimiyatga o'ch, miyalar yuviladi, hokimiyatga egalar o'zlarining lavozimlaridan foydalangan holda istaganlarini qilishadi va o'zlari suvdan quruq chiqishadi. Seni esa endi hech narsa hayron qoldirmaydi. Chunki sen bularni barini yaxshi bilasan. Baribir sendagi hayotni onang ushlab turadi va sen u uchun harakat qilasan, universitetga kirasan, uchrasha boshlaysan va otangning ishlarini sir saqlaysan.

Biroq keyinchalik hammasi yana o'zgaradi. Kutilmaganda o'zgaradiki, hayotingda yana tartibsizlik boshlanadi. Hayotimda eng qo'rchinlisi nima ediya? Bu koinotimda

hayotni yo‘qotib qo‘yish edi. Onamni, hayotimni, butun koinotimni tasvirlab turgan o‘sha so‘nggi besh yulduzni yo‘qotib qo‘yish edi.

Yana o‘tinch senda qayerdan paydo bo‘lganini bilmaysan, kimga o‘tinyapsan tushunmaysan, ammo o‘tinasan.

– Men hotirjamman. – deydi onang senga. – Men hotirjamman, chunki mening “Borlig‘im”da hayot davom etadi.

Parallel borliqlar?!

Onamning borlig‘i men edim. Meniki esa onam edi. Biz bir-birimizda hayotni ushlab turardik. Biroq, mening borlig‘im markazida hayot so‘ndi.

Infarkt. Va hammasi shunchaki o‘chdi. Umuman hammasi. Barcha yulduzlarim, ularga qo‘shib esa kelajakka ichonch, odamlarga nisbatan bo‘lgan so‘nggi hurmatim, harakatlarim, orzularim, rejalarim... barcha-barchasi so‘ndi. Chunki bularning bari onam bilan bog‘langan edi. Endi esa u yo‘q. Koinotim shunchaki g‘oyib bo‘ldi. O‘zim ham hech narsani his etmay qo‘ydim. Ko‘zlarimdagi yosh, onamning go‘zal yuzini xiralashtirib yuborardi. Uning muzdek yuzlaridan o‘payotib, faqat bir gapni, “Oyijon, siz bilan ketgim kelyapti” deya qayta-qayta takrorlardim.

Onamning vafotidan keyingi har bir kun, yillik azoblarga teng bo‘lib qolgandi. Tushunyapsizmi? Borlig‘im butunlay o‘chdi. Qani endi sabab qarilik bo‘lsa... lekin onam bor yo‘g‘i qirq besh yoshda edi. Onam qayerdandir otam ishlari va jazmanining yigirma bir yoshli o‘g‘lini ta‘minlab kelayotgani haqida bilib qolgan ekan.

Uch yillik azob va qiynoqlarday o‘tgan uch kundan so‘ng, menda g‘azab va qasos olish ishtiyoqi uyg‘ongandi. Albatta buni ajoyib tarzda uddaladim ham. Otam va jazmanini ishdan, o‘g‘lining esa universitetdan haydaliniga erishdim. Uch hayotni rasvo qildim. Balki siz xozir meni yomon inson deb o‘ylayotgandirsiz, bunday qilmaslik kerak edi dersiz, balki haqdirsiz ham. Balki umuman to‘g‘ri qilgan deb hisoblarsiz, axir ularni deb onamdan ayrilgandim. Nima bo‘lgan taqdirda ham siz buni muhokama qilasiz. Va bu yomon emas.

Men o‘zimni aybdor his etmasdim. Biroq erkin ham emasdim. Azoblar-u, sovuqlikdan boshqa hech narsani sezmasdim. Menda hech qanday yaxshilik qolmagandi. Bo‘lajak turmush o‘rtog‘im ham huddi shunday degandi, u bilan har qanday aloqalarni uzayotganimda.

Ha, aynan shunday. Yashashdan ma‘no qolmadi. Ammo boshqa bolalar ham men kabi bo‘lishlarini istamadim. Bolalar borliqlari doimo kengayib borishini, unda “muhabbat”, “ishonch”, “umid” va “orzu” kabi biri biridan ajoyib sayyoralar paydo bo‘lishini xohlardim. Keyinchalik ular ham o‘z farzandlariga eng yorug‘ yulduzlarni tuhfa etishlarini istardim. Shu haqda o‘ylar ekanman, xat yozishga qaror qildim. Barcha ota-onalarga xat. U quyidagicha edi:

Ota-onalarga xat

Hurmatli ota-onalar. Siz balki ushbu xatni o‘qib: “Bu qiz kim bo‘libdiki, aql o‘rgatadi?” dersiz, va yoki o‘qib bo‘lib quloq solishga qaror qilarsiz. Menmi? Men hech

kimman. Men hattoki ona ham emasman, qolaversa bo‘lolmasam ham kerak. Balki siz hozir “O‘zida farzandi bo‘lmay turib, bizni qayerdan ham tushuna olardi?” deb o‘ylayotgandirsiz. Siz haqsiz. Sizlarni men tushuna olmayman. Biroq farzandlaringizni tushuna olaman. Men ham suyukli farzand bo‘lganman, malika edim. Bu uchun ota-onamdan minnatdorman. Ular menga hayot bera turib, nafaqat hayot, balki haqiqiy borliqni tuhfa etishgan. Bir tasavvur qilib ko‘ring-a, siz farzandingizga hayotdan-da ko‘prog‘ini beryapsiz. Siz unga butun bir borliqni beryapsiz! Va mana shu borliq go‘zalligi butunlay sizga bog‘liq! Bir biringizni sevingki, farzandingiz sizga qarashi bilanoq, borlig‘idagi yulduzlar charaqlasin. Buni takrorlashdan to‘xtamang. Agar sevingiz so‘nayotgan bo‘lsa, bir-biringizni sevgan vaqtlaringizni eslang. Chunki shirin xotiralar kinder shokoladi ichidan chiqqan o‘yinchoqlarga o‘xshaydi. Bir-biringizni hurmat qiling! Bu juda muhim! Eringizni hurmat qiling, ayolingizni hurmat qiling. Farzandingiz muhabbatda hurmat roli muhim ekanligini ko‘rib katta bo‘lsin. Turmush o‘rtog‘ingizni hurmat qilganingizda, siz nafaqat uni, balki uning borlig‘ini ham hurmat qilgan bo‘lasiz.

Farzandingiz qo‘rquviga sababchi bo‘lmang! Ota-onalar bola qo‘rquviga sababchi bo‘lishganida, uning borlig‘i kichrayib boradi. Borliq kichrayganda esa, qizaloq yig‘lab o‘tiradi, esga oladi va foydasi bo‘ladimi yo‘qmi bilmay, xat yozadi. Axir u yulduzlari hamda umidini yo‘qotib qo‘ygandi. Qanaqa umid? U butun borlig‘ini yo‘qotdi. Bunga sabab bo‘lmang! Agar ketishni istasangiz, keting. Ammo, shunday ketingki, hech kim alamda qolmasin.

Nafratga sababchi bo‘lmang!

Ishonchsizlikka sababchi bo‘lmang!

Omadsizlikka sababchi bo‘lmang!

G‘ururga sababchi bo‘ling!

Muhabbatga sababchi bo‘ling!

Yanada ko‘prog‘iga erishishga urinishga sababchi bo‘ling!

Bularning barini sizga nimanidir ko‘rishni-yu, nimanidir bilmaslikni istagan qiz aytyapti. Siz bu xatni o‘qib bo‘lguningizga qadar, balki u qiz bu hayotda ortiq bo‘lmas. Katta ehtimol bilan shunday bo‘ladi. Chunki unda endi borliq yo‘q. Xuddi hayot kabi...

Ammo farzandingiz koinoti doimo charaqlab tursin, cheksiz kengayib borsin. Yulduzli chiroqchalari hech qachon so‘nmasin...